

SURXONDARYO VILOYATIDA OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI JINOYATLAR HOLATINING TAHLILI



Boltayev Murod Mamarajabovich

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi, Surxondaryo viloyati Termiz shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i

Annotatsiya. Maqolada “kriminologiya” fanida jinoyatchilik, uning holati darajasi (koeffitsienti), dinamikasi, geografiyasi va tuzilishi kabi tushunchalarning mazmuni, Surxondaryo viloyatining ijtimoiy, iqtisodiy, demografik va kriminogen xususiyatlarini o'rganish ishlari yoritilgan. Shuningdek, oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning holati, dinamikasi, geografiyasi va tuzilishining tahlili, ayrim omillari hamda jinoyatchilikning oldini olish maqsadida maxsus va ijtimoiy profilaktik chora-tadbirlarni belgilash va ularni amalga oshirish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatchilik, oilaviy nizolar, jinoyatchilikning holati, darajasi, dinamikasi, geografiyasi va tuzilishi.

АНАЛИЗ СИТУАЦИИ С СЕМЕЙНО-БЫТОВЫМИ ПРЕСТУПЛЕНИЯМИ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В статье рассматривается содержание таких понятий, как преступность, уровень (коэффициент) ее состояния, динамика, география и структура в дисциплине “криминологии”. Проведен анализ состояния, динамики, географии и структуры преступлений в рамках семейно-бытового комплекса в Сурхандарьинской области, высказаны замечания по отдельным факторам преступлений семейно-бытового характера, а также по определению и реализации специальных и социально-профилактических мер в целях предупреждения этих преступлений.

Ключевые слова: преступность, состояние преступности, уровень преступности, динамика преступности, география преступности, структура преступности.

ANALYSIS OF THE SITUATION WITH FAMILY AND DOMESTIC CRIMES IN SURKHANDARYA REGION

Abstract. The article examines the content of such concepts as crime, the level (coefficient) of its state, dynamics, geography and structure in the discipline of “criminology”. The analysis of the state, dynamics, geography and structure of crimes within the framework of the family and domestic complex in the Surkhandarya region is carried out, comments were made on certain factors of domestic crimes, as well as the definition and implementation of special and socially preventive measures to prevent crimes of a domestic nature.

Keywords: crime, state of crime, crime rate, crime dynamics, geography of crime, crime structure.

Insoniyat jamiyat mavjud bo'lganidan buyon jinoyatchilikni ijtimoiy salbiy hodisa sifatida unga qarshi kurashishning usul va vositalarini qidirib keladi.

Jinoyatchilikni bir butun ijtimoiy salbiy hodisa sifatida o'rganuvchi maxsus fan – kriminologiya fani hisoblanadi. Ushbu fanda “jinoyatchilik” tushunchasiga alohida ta'rif berilgan bo'lib, unga

ko'ra “Jinoyatchilik – jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy va jinoiy-huquqiy hodisa, muayyan davlatda, ma'lum bir davr mobaynida sodir etilgan barcha jinoyatlarning yig'indisidir” [1; 5-b.].

Jinoyatchilik holati uning darajasi (koeffitsiyenti), dinamikasi, geografiyasi va tuzilishiga oid aniq statistik ma'lumotlarda namoyon bo'ladigan ko'rsatkichlar bilan o'lchanadi.

I.I.Karpesning fikriga ko'ra, "Jinoyatchilik holati sodir etilgan jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslar miqdoridir" [3; 9-b.] Chunki jinoyatchilikning umumiy holatini sodir etilgan jinoyatlar bilan birga, uni sodir etgan shaxslar ham tashkil etadi.

Jinoyatlar holatini aniqlash va tahlil qilish mavjud jinoyatchilikning dinamikasi, darajasi, geografiyasi va tuzilishida yuzaga kelgan o'zgarishlar haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Bu esa, jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlarni jinoyat haqida aniq ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Bunday ma'lumotlarga ega bo'lgan jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi subyektlar, o'z faoliyatini rejalashtirishi va mavjud kuch vositalarini shunga qarab taqsimlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunga misol, jangchi jangda g'alaba qozonishi uchun jangga kirishishdan oldin o'z raqibini to'liq o'rganib, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlaydi, keyin raqibining kuchli tomonlaridan himoyalanih va kuchsiz tomoniga hujum qilish taktikasini ishlab chiqib, unga to'g'ri rioya qilishi natijasida g'alaba qozonishiga imkoniyat yaratadi.

Kriminologik bilimlarning zarurligi shundaki, ular nafaqat huquqbuzarliklar profilaktikasi, balki umumiy ma'noda jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyoti subyektlarining faoliyatida asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.


Surxondaryo viloyatida oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning holatini ochib berish oilalarda sodir etilgan jinoyatlarning dinamikasi, darajasi, geografiyasi va tuzilishini aniqlash hamda tahlil qilish orqali amalga oshirildi. Bunday jinoyatlarining sodir etilishiga hududning ijtimoiy, iqtisodiy, demografik va kriminogen vaziyat ta'sir qiladi. Shundan kelib chiqib, viloyatda yuqoridagi holatlarni o'rganish muhim hisoblanadi.

Ta'kidlash o'rinliki, Surxondaryo viloyati O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat sifatida 1941-yil 6-martda tashkil etilgan (1925-yil 29-iyundan Surxondaryo okrugi bo'lgan). 1960-yil 25-yanvarda Qashqadaryo viloyati bilan qo'shilgan. 1964-yil fevralda qaytadan tashkil qilingan.

Respublikaning janubi-sharqida Surxon-Sherobod vodiysi joylashgan. Viloyat nomi

vohadan oqib o'tuvchi "Surxon" (fors-tojik: "qizil") daryosi nomidan kelib chiqqan. Janubidan Amudaryo bo'ylab Afg'oniston, shimoliy, shimoli-sharq va sharqdan Tojikiston, janubi-g'arbdan Turkmaniston, shimoli-g'arbdan Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh.

Maydoni 20,1 ming km². Aholisi 2907 ming kishi (2024-yil 1-iyun holatiga ko'ra). Tarkibida 14 ta tuman (Angor, Bandixon, Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Muzrabot, Oltinsoy, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Sho'rchi, Qiziriq, Qumqo'rg'on), 8 ta shahar (Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Termiz, Sharq'un, Sherobod, Sho'rchi, Qumqo'rg'on), 7 ta shahar tipidagi posyolka va 114 ta qishloq aholi punktlari mavjud (2024). Markazi – Termiz shahri. Ekin maydoni – 282,7 ming gektar. Mehnatga yaroqli aholi – 880,0 ming kishi. Temir yo'l uzunligi – 301,0 km. Avtomobil yo'li uzunligi 2,7 ming km.ni tashkil etadi [6].



Sanoat ishlab chiqarish: yengil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi: paxta va bug'doy yetishtirish, qoramolchilik va qo'ychilik, transport, ayniqsa, temiryo'l va avtomobil transporti salmoqli o'rin tutadi.

Sanoatining yetakchi tarmoqlari: paxta tozalash va paxtani qayta ishlash korxonalaridir. Yirik sanoat korxonalari: "Jarqo'rg'onneft" boshqarmasi, Sherobod keramika badiiy buyumlari, Denov yog'-ekstraksiyasi, Sariosiyo tosh saralash zavodlari, Sho'rchi un kombinati, Jarqo'rg'on yigiruv-to'quv va Termiz tikuvchilik fabrikalari, Sharq'un ko'mir koni, Xo'jaikon tuz koni korxonalari va boshqalar.

Surxondaryo viloyatida **40 ga** yaqin qo'shma, **4000 dan** ziyod kichik va xususiy korxona ishlab turibdi. Jumladan, Afg'oniston bilan hamkorlikda tashkil etilgan xalq iste'moli mollari ishlab chiqariladigan "Namaf" va "Afro'z", "Surxonteks" va boshqa qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Hindiston – Termiz "Farmed" qo'shma korxonasida mahalliy giyohlar asosida dori-darmon, Turkiya – Termiz "Po'lat" qo'shma korxonasida milliy gilamlar, paloslar tayyorlanadi. Tumanlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari qayta ishlanadigan kichik korxonalar va sexlar tashkil etilmoqda.

Surxondaryo viloyatida respublikada yagona bo'lgan Termiz daryo porti joylashgan. Termiz va Sariosiyoda aeroport bor. Termiz aeroportidan Toshkent, Moskva, Ashxobod, Olmaota, Samar-

qand, Namangan, Buxoro, Andijon va boshqa yo'nalishlarda yo'lovchilar tashuvchi samolyotlar qatnovi yo'lga qo'yilgan. Yaqinda Sariosiyoda aeroportida mahalliy qatnovlar yo'lga qo'yildi.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, pillachilik, limonchilik. Tog' etaklarida lalmikor dehqonchilik (asosan, bug'doy va arpa) bilan shug'ullaniladi. O'zbekistonda eng ko'p ingichka tolali paxta Surxondaryo viloyatida yetishtiriladi. Viloyatning tog'oldi tumanlarida bog'dorchilik va uzumchilik rivojlangan. Chorvachilikda qoramol, qo'y (qorako'l va hisor qo'ylari), echki, yilqi, parranda, quyon boqiladi. Jahon mo'yna va teri auktsionlarida juda qadrlanadigan "Surxon suri" qorako'l terisi yetishtiriladi [6].

Syrxondaryo viloyatida mavjud bo'lgan ijtimoiy obyektlar					
1	Markaziy shifoxona	24 ta	10	Maktabgacha ta'lim muassasalari	1161 ta
2	Shundan, davlat tasarrufidagi shifoxonalar	24 ta	11	Umumta'lim maktablari	948 ta
3	Sanoat va qo'shma korxonalar, mikrofirmalar	49084ta	12	Kasb-hunar maktablari, litsey, kollej, texnikumlar	21 ta
4	Bozorlar	70 ta	13	Oliy ta'lim muassasalari	7 ta
5	Umumiy ovqatlanish obyektlari	686 ta	14	Mehribonlik uylari	0 ta
6	Xiyobon/ istirohat bog'lari	17 ta	15	Mehmonxonalar	65 ta
7	Huquq-tartibot maskanlari	36 ta	16	Avtomobil bozori	2 ta
8	Ko'p qavatli uylar	1243 ta	17	To'yxonalar	165 ta
9	Masjidlar	159 ta			

Yaqin o'tmishda Surxondaryo viloyatining iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rinda bo'lgan. Hozirgi kunga kelib, viloyatning iqtisodiyotida yangi tarmoqlar vujudga keldi. Viloyatning tabiiy geografik o'rni qulay, mehnat resurslari ham yetarli hisoblanadi.

Shuningdek, Surxondaryo viloyati Afg'oniston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlari bilan chegaradoshligi, O'zbekiston poytaxti Toshkent

shahridan (574 km.) hamda viloyat markazidan ayrim tumanlarning (165 km.) uzoqlikda joylashganligi viloyatga nisbatan o'zgacha yondashuvni taqozo etadi.

Hududdagi 49 084 ta tadbirkorlik subyektlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ayniqsa, mehnatga layoqatli bandligi ta'minlanmagan fuqarolar uchun ish o'rinlarini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Surxondaryo viloyatida oila-turmush doirasi-dagi jinoyatlarning holatini ochib berishda, oilada sodir etilgan jinoyatlarning dinamikasi haqidagi statistik ma'lumotlar muhim hisoblanadi.

Jinoyatchilik dinamikasi – bu jinoyatchilik holatining ma'lum belgilangan davrdagi o'zgarishi (yaxshilanishi yoki yomonlanishi, o'sishi yoki kamayishi) [1; 25-b.].

Jinoyatchilik dinamikasini tahlil qilish nazariy va amaliy jihatdan ikkita maqsadni ko'zlaydi:

birinchidan, o'tgan davrdagi jinoyatchilik holatining o'zgarishi haqida tushuncha berish va bu o'zgarishlarning qonuniyatlarini aniqlash;

ikkinchidan, jinoyatchilik holatining o'zgarishi asosida yaqin va uzoq kelajakdagi jinoyatchilik ahvoli, darajasi va tuzilishini prognoz qilish. Bunda, jinoyatchilikka qarshi kurash, ayniqsa, uning oldini olishga qaratilgan choralarni samarali rejalashtirishga imkon yaratiladi.

G.A. Avanesov "*Jinoyatchilik darajasi* muayyan hududda sodir etilgan jinoyatlar miqdoridan kelib chiqib, shu hududda yashaydigan aholi soniga nisbatan hisoblanadi" – deya ta'kidlaydi [4; 459 b].

I. Ismailov, Q.R. Abdurasulova va I.Yu. Fazilov esa "*Jinoyatchilik darajasini* mamlakat yoki uning ma'muriy-hududiy birligida, ma'lum davrda sodir etilgan jinoyatlar yoki ularni sodir etgan shaxslarning o'sha hududda yashovchi aholining ma'lum qismiga nisbatan olingan miqdori tushuniladi. Jinoyatchilik darajasi nisbiy miqdorda ko'rsatiladi. Bunda, har ming yoki o'n ming yoxud yuz ming kishiga nechta jinoyat yoki jinoyatchi to'g'ri kelishi aniqlanadi. Jahon kriminologiya amaliyotida yuz ming kishiga nechta jinoyat yoki jinoyatchi to'g'ri kelishini aniqlash umume'tirof etilgan. Biroq, jinoyatchilik darajasini aniqlashda aholining qancha qismiga nisbatan olish masalasi tahlil qilinayotgan hudud (muayyan respublika, viloyat, tuman, shahar, mahalla)da yashovchi aholining umumiy miqdoriga qarab o'zgarishi mumkin" – deya ta'riflashadi [2; 63-64-b.].

Jinoyatchilik darajasi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$J / d = \frac{\text{jino\text{y}atlar soni} \times 100\,000}{\text{aholi soni}}$$

Jinoyatchilik tuzilishi deganda, mamlakat yoki uning ma'muriy-hududiy birligida ma'lum davrda sodir etilgan jami jinoyatlarning ichida, jinoyatlar muayyan turlarining ulushi tushuniladi. Jinoyatchilik tuzilishi sifat jihatidan turli yo'nalishlarni ochib berishda muhim o'rin egallaydi va ijtimoiy xavflilik darajasi haqida ma'lumotlar beradi. Shuningdek, muayyan hududda ma'lum davrda sodir etilgan jinoyat turlarining bir-biriga nisbatini ochib beradi va unga qarshi kurashda asosiy zarbani qaysi yo'nalishga qaratish kerakligini aniqlaydi. Bu jinoyatchilik profilaktikasining samarali choralarni ishlab chiqish hamda jinoiy-huquqiy choralarni qo'llashni tabaqalashtirish imkonini beradi [1; 65-b.].

Jinoyatchilik geografiyasi deganda, hududda ma'lum davrda sodir etilgan jinoyatlar yoki ularni sodir etgan shaxslar mutlaq miqdorining ma'muriy-hududiy birlik bo'yicha taqsimlanishi tushuniladi.

Surxondaryo viloyatida oxirgi 4 yil (2021, 2022, 2023, 2024-yy.) davomida oila-turmush doirasida og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etilish holatlari uchramoqda. Natijada, uzoq yillardan buyon nizosi davom etib kelayotgan oilalarni o'rganish va ulardagi mavjud muammolarni hal etishda mas'ullarning o'zaro hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi jinoyatlarni sodir etilishiga olib kelmoqda.

Tahlillarga ko'ra, oxirgi 4 yil davomida oila-turmush doirasida sodir etilgan jinoyatlar asosan qotillik, tan jarohati yetkazish va oilaviy (maishiy) zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar hisoblanadi.

Jumladan, qasddan odam o'ldirish (JK 97-m) va badanga shikast yetkazish (JK 104-m, 105-m, 109-m) va oilaviy (maishiy) zo'ravonlik (JK 126¹-m) bilan bog'liq jami 1 840 ta jinoyatlar qayd etilgan bo'lib, shundan 339 tasi (18,4 %) oila-turmush doirasida yuzaga kelgan. Achinarlisi, oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning yil sayin ortib borishi kuzatilgan.

Surxondaryo viloyatida 4 yil davomida sodir etilgan oila-turmush doirasidagi jinoyatlar 339 tani tashkil etib, bundan: 44 tasi (13 %) 2021-yilda, 74 tasi (22 %) 2022-yilda, 104 tasi (31 %) 2023-yilda va 117 tasi (34 %) 2024-yilda sodir etilgan [7].

Ushbu jinoyatlarning dinamikasi jinoyatchilik yildan yilga o'sib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Agarda, 2021-yilda qayd etilgan oila-turmush doirasidagi jinoyatlarni 2024-yilga nisbatan solishtiradigan bo'lsak, deyarli 3 barobarga oshganligini kuzatishimiz mumkin. Bu esa, Surxondaryo viloyatida ushbu jinoyatlarning oldini olish bilan bog'liq bir qator muammolar borligini anglatadi.



Oxirgi 4 yil davomida Surxondaryo viloyatida qayd etilgan oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning *tuzilishi* bo'yicha tahlili:

Surxondaryo viloyatida oxirgi 4 yil davomida 339 ta oila-turmush doirasida jinoyat ro'yxatga olingan. Shundan:


- qasddan odam o'ldirish (JK 97-m) 37 ta, bu 11 foizni tashkil etmoqda;

- qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-m) 34 ta, bu 10 foizni tashkil etmoqda;

- qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 105-m) 66 ta, bu 19 foizni tashkil etmoqda;

- qasddan badanga yengil shikast yetkazish (JK 109-m) 125 ta, bu 37 foizni tashkil etmoqda;

- oilaviy (maishiy) zo'ravonlik (JK 126¹-m) 77 ta, bu 23 foizni tashkil etmoqda.



Surxondaryo viloyatida oila-turmush doirasida sodir etilgan jinoyatlar tuzilishi tahlili eng ko'p qasddan badanga yengil shikast yetkazish (37 %) bilan oilaviy (maishiy) zo'ravonlik (23%) kabi jinoyatlar sodir etilayotganligini ko'rsatmoqda.

Surxondaryo viloyatida oila-turmush doirasida sodir etilgan jinoyatlarning yillar bo'yicha tahlili:


■ 2021-yilda **44 ta** jinoyat sodir etilgan bo'lib, shundan 5 tasi qasddan odam o'ldirish, 7 tasi qasddan badanga og'ir, 10 tasi o'rtacha og'ir va 22 tasi yengil shikast yetkazish;

■ 2022-yilda jami **74 ta** jinoyat sodir etilgan

bo'lib, shundan 7 tasi qasddan odam o'ldirish, 8 tasi qasddan badanga og'ir, 18 tasi o'rtacha og'ir va 41 tasi yengil shikast yetkazish;

■ 2023-yilda jami **104 ta** jinoyat sodir etilgan bo'lib, shundan 15 tasi qasddan odam o'ldirish, 9 tasi qasddan badanga og'ir, 15 tasi o'rtacha og'ir va 32 tasi yengil shikast yetkazish, 33 ta oilaviy (maishiy) zo'ravonlik;

■ 2024-yilda jami **117 ta** jinoyat sodir etilgan bo'lib, shundan 10 tasi qasddan odam o'ldirish, 10 tasi qasddan badanga og'ir, 23 tasi o'rtacha og'ir va 30 tasi yengil shikast yetkazish, 44 tasini oilaviy (maishiy) zo'ravonlik tashkil etmoqda [7].



E'tiborlisi, oila-turmush doirasida sodir etilgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyati yil sayin ortib borishi kuzatilgan. Jumladan, 2021-yilda 7 ta, 2022-yilda 8 ta, 2023-yilda 9 ta va 2024-yilda 10 ta jinoyat sodir etilgan.

2023–2024-yillarda oila-turmush doirasida qasddan odam o'ldirish jinoyati ham boshqa yillarga nisbatan ancha ko'p sodir etilganligini kuzatishimiz mumkin.

Ushbu 339 ta oila-turmush doirasidagi jinoyatlarining 91 tasi (26,8%) ayollar va 248 tasi (73,2%) erkaklar tomonidan sodir etilgan. Demak, erkaklar ayollarga nisbatan ushbu turdagi

jinoyatlarni ko'proq sodir etmoqda.

Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, asosiy salmog'i ya'ni 54,9 foizi (186 tasi) quyidagi Denov (16,2 %), Sho'rchi (15,3 %), Termiz shahar (13 %) va Jarqo'rg'on (10,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yuqoridagi tahlil 4 yil davomida Surxondaryo viloyatida qayd etilgan oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning **55** foizi aynan ushbu 4 ta hudud hissasiga to'g'ri kelayotganligini ko'rsatmoqda.

Endi biz oila-turmush doirasida sodir etilgan jinoyat turlarining har biri bo'yicha o'rganadigan bo'lsak, viloyat bo'yicha jami **96 ta** qasddan odam

o'ldirish jinoyati qayd etilgan bo'lib, shundan, **37** tasi (39%) oila-turmush doirasida sodir etilganligini kuzatishimiz mumkin. Shundan, 2021-yil 5 ta, 2022-yil 7 ta, 2023-yil 15 ta, 2024-yil 10 ta jinoyat sodir etilgan.

Oila-turmush doirasida sodir etilgan 37 ta qasddan odam o'ldirish jinoyatining 6 tasi Denov, 5 tasi Sho'rchi, 5 tasi Sherobod, 4 tasi Termiz shahar, 4 tasi Muzrabot, 3 tasi Qumqo'rg'on, 3 tasi Oltinsoy, 1 tasi Angor, 1 tasi Termiz, 1 tasi Qiziriq, 1 tasi Bandixon, 1 tasi Jarqo'rg'on, 1 tasi Sariosiyo va 1 tasi Uzun tumanlarida sodir etilgan.

Tahlillarga ko'ra, qotillik jinoyatining deyarli har ikkinchisi (16 tasi yoki 43,3 foizi) Denov (6 ta), Sherobod (5 ta) va Sho'rchi (5 ta) tumanlari


hissasiga to'g'ri keladi.

Jinoyatlarining eng ko'pi 2024-yilda (15 ta yoki 40,1 %) sodir etilgan.

Oila-turmush doirasida qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining sabablari o'rganilganda:

- 3 tasi – yaqin qarindoshiga nisbatan qasd orqasida o'ch olish;
- 6 tasi – yaqin qarindoshlar o'rtasida kelib chiqqan o'zaro kelishmovchilik;
- 8 tasi – yaqin qarindoshlar o'rtasida mol-mulk talashish;
- 9 tasi – er-xotin bir-birini rashk qilishi va xiyonat;
- 11 tasi – boshqa sabablarga ko'ra qasddan odam o'ldirish jinoyatlari sodir etilgan.

Oila-turmush doirasida sodir etilgan **37 ta qasddan odam o'ldirish** jinoyatining hududlar bo'yicha taqsimoti



Shuningdek, 1 tasi xotini tomonidan eriga, 5 tasi akasi yoki ukasiga, 14 tasi qarindoshiga va 17 tasi eri tomonidan xotiniga nisbatan qasddan odam o'ldirish jinoyatlari sodir etilgan.

E'tiborli tomoni shundaki, oila-turmush doirasidagi qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining 46 foizi (17 ta) eri tomonidan xotiniga nisbatan sodir etilgan bo'lib, asosiy sabablari ishqiy munosabat, xiyonat va rashk oqibatida yuzaga kelgan.

Eri tomonidan xotiniga nisbatan 4 ta Sherobod va 3 ta Muzrabot tumanlarida jinoyat sodir etilgan bo'lib, bu Surxondaryo viloyatining shahar-tumanlari orasida eng salbiy ko'rsatkich sifatida qayd etilgan. Misol uchun, Termiz shahar va Oltinsoy tumanida 2 tadan, Angor, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sho'rchi, Denov va Uzun tumanlarida 1 tadan jinoyat sodir etilgan.

Viloyat bo'yicha jami **1667** ta qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlari hisobga olingan. Shundan:

- 14,5 foizi (241 ta) – qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-m);
- 30,4 foizi (507 ta) – qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 105-m);
- 55,1 foizi (919 ta) – qasddan badanga yengil shikast yetkazish (JK 109-m) ni tashkil etmoqda.

Ushbu jinoyatlarining **13,5** foizi, jumladan, **225** tasi oila-turmush doirasida sodir etilgan.

Shundan:

- 15,1 foizi (34 ta) – qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-m);
- 29,3 foizi (66 ta) – qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 105-m);
- 55,6 foizi (125 ta) – qasddan badanga yengil shikast yetkazish (JK 109-m) ni tashkil etmoqda.

Yillar bo'yicha tahlil qilinganida: 2021-yilda 39 ta, 2022-yilda 67 ta, 2023-yilda 56 ta va 2024-yilda 63 ta jinoyat sodir etilgan.



Ushbu tahlilda, 2022-yilda boshqa yillarga nisbatan eng ko'p 29,8 foiz oila-turmush doirasida qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlari sodir etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich yildan yilga oshib borayotganligini ham anglash mumkin.

Tahlillarga ko'ra, oila-turmush doirasida qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarining har ikkinchisi (120 tasi yoki 53,3 foizi) Termiz shahri (27 ta) va Denov (34 ta), Sho'rchi (32 ta), Jarqo'rg'on tumanlari (27 ta) hissasiga to'g'ri kelgan.

Oila-turmush doirasida qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarining sabablari o'rganilganda:

- 1 tasi – yaqin qarindoshiga nisbatan qasd orqasida o'ch olish;
- 103 tasi – yaqin qarindoshlar o'rtasida

kelib chiqqan o'zaro kelishmovchilik;

- 12 tasi – yaqin qarindoshlar o'rtasida mol-mulk talashish;
- 3 tasi – er-xotin bir-birini rashk qilishi va xiyonat;
- 106 tasi – boshqa sabablarga ko'ra qasddan odam o'ldirish jinoyatlari sodir etilgan.

Shuningdek, 3 tasi xotini tomonidan eriga, 13 tasi akasi yoki ukasiga, 111 tasi qarindoshiga va 98 tasi eri tomonidan xotiniga nisbatan sodir etilgan.

Tan jarohati yetkazish jinoyatlarining 49,3 foizi (111 ta) qarindoshiga nisbatan sodir etilgan bo'lib, asosiy sabablari mol-mulk talashish, oilaviy nizo va doimiy daromad manbayiga ega bo'lmaganligi oqibatida yuzaga kelgan.

Oila-turmush doirasida qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarining sabablari



Misol uchun, 2023-yilning 6 yanvar kuni tungi soat 22:30 da Oltinsoy tumani "Gulchechak" MFYda yashovchi fuqaro A.A. mast holatda o'zining yashash uyida, o'zi bilan bir xonadonda yashovchi ukasi A.Ab. bilan oldindan davom etib kelayotgan oilaviy nizo sababli tortishib qolib, janjal vaqtida, A.A. oshxona pichog'ini ukasi A.Ab.ning qorin bo'shlig'iga qasddan sanchib olib, hayoti uchun havfli bo'lgan og'ir tan jarohati yetkazgan. Holat yuzasidan fuqaro A.A.ga nisbatan JKning 104-moddasi tegishli qismlari bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Yaqin qarindoshlar o'rtasida 13 ta Termiz shahri va 15 ta Sho'rchi, 14 ta Jarqo'rg'on, 14 ta Denov tumanlarida jinoyat sodir etilgan bo'lib, bu Surxondaryo viloyatining shahar-tumanlari orasida eng salbiy ko'rsatkich sifatida qayd etilgan. Misol uchun; Muzrabot va Qumqo'rg'on tuman-


larida 7 tadan, Termiz, Angor, Sherobod va Oltinsoy tumanlarida 6 tadan, Bandixon tumanida 5 ta, Qiziriq, Boysun, Sariosiyo va Uzun tumanlarida 3 tadan jinoyat sodir etilgan.

Bu esa, oila-turmush doirasida sodir etilgan jinoyatlarning barvaqt oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar yetarlicha belgilab olinmaganligi va to'g'ri tashkil etilmaganligi, "Mahalla yettiligi" tomonidan notinch va nizoli oilalar bilan ijtimoiy profilaktik chora-tadbirlar to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi va manzilli ishlar talab darajasida olib borilganligidan dalolat beradi.

Oila-turmush doirasidagi qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarini sodir etilish vaqti o'rganilganida, quyidagilar ma'lum bo'ldi:

- 91 tasi soat 14:00 dan 24:00 gacha;
- 42 tasi soat 24:00 dan 06:00 gacha;
- 92 tasi soat 06:00 dan 14:00 gacha.

Oila-turmush doirasidagi qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarining sodir etilish vaqti



Oila-turmush doirasidagi qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlari kunning ikkinchi yarimida sodir etilishiga yo'l qo'yilmoqda degan xulosaga kelish mumkin. Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarining asosiy qismi, ya'ni, 145 tasi (64,4 foizi) xonadonlarda, 3 tasi jamoat joyida, 77 tasi boshqa joylarda sodir etilishiga yo'l qo'yilgan.

Buning asosiy sabablardan biri, joylarda uzoq yillardan buyon ijtimoiy muammosi bartaraf etilmasdan kelayotgan oilalarni o'rganish va ulardagi mavjud muammolarni hal etishda "Mahalla yettiligi"ning o'zaro hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi natijasida, bu turdagi jinoyatlar sodir etilmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda oila-turmush doirasidagi jinoyatlar to'g'risida ichki ishlar organlarida alohida statistik hisobotlar yuritilmoqda. Biroq, ushbu statistik hisobotlar faqat qasddan odam o'ldirish yoki odam o'ldirishga suiqasd qilish, qasddan badanga turli darajada shikast yetkazish hamda oilaviy (maishiy) zo'ravonlik kabi jinoyatlarni o'z ichiga qamrab olganligini ko'rishimiz mumkin. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida 24 tadan oshiq jinoyat turlarida oila-turmush doirasidagi jinoyatlar sodir etilishi mumkin [5; 166–170-6.].

Oila-turmush doirasidagi jinoyatlar holatini o'rganishda ma'lum bo'ldiki, statistik hisobotlarni yangilash va unga oilada sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni kiritib borish tartibini joriy etish tavsiya etiladi.

Surxondaryo viloyatida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi subyektlar hamda "Mahalla yettiligi" tomonidan oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklarning umumiy, yakka tartibdagi hamda viktimologik profilaktikasi elementlarini o'z ichiga oluvchi maxsus, ijtimoiy profilaktik chora-tadbirlarni belgilash va ularni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

birinchidan, zo'ravonlik va janjalkashlikka moyil shaxslarga nisbatan yakka tartibda profilaktik chora-tadbirlarni qo'llash hamda ularning oila a'zolari va yaqinlari bilan hamkorlikda ishlash;

ikkinchidan, oila-turmush doirasidagi jinoyatlar ko'p sodir etiladigan joylarda (xonadonlar, ko'cha, podyezd, tungi klublar, kafe-barlar) professional xavfsizlik xizmatini tashkil etish va videokuzatuv tizimlarini takomillashtirish;

uchinchidan, nizoli va kelishmaydigan, shuningdek, ijtimoiy muammolari mavjud bo'lgan oilalarni "qizil nuqta"lar sifatida belgilab, "SOS" tezkor chaqiruv qurilmalari va kuzatuv kameralari o'rnatish choralari ko'rish;

to'rtinchidan, profilaktika (katta) inspektorlarining ma'muriy amaliyotini oila-turmush doirasidagi, jumladan: mayda bezorilik, jamoat joylarida alkogol mahsulotlarini iste'mol qilish, maishiy shovqinga qarshi kurashish qoidalarini buzish, yengil tan jarohati yetkazish, haqorat qilish, tuhmat qilish va boshqa shu kabi ma'muriy huquqbuzarliklarni aniqlashga yo'naltirish;

beshinchidan, tajovuzkor shaxslarning ro'yxatini shakllantirish va ular bilan psixokorreksion tadbirlar o'tkazish;

oltinchidan, oila-turmush doirasidagi jinoyatlar bo'yicha muhokama yig'ilishlari va sayyor sud majlislarini muntazam o'tkazish hamda ushbu majlislarda g'ayriijtimoiy va tajovuzkor xulq-atvorli shaxslarning ishtirokini ta'minlash;

yettinchidan, ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislarni jalb etgan holda o'quvchi (talaba)lar tomonidan internetdan xavfsiz foydalanish, uning salbiy ta'siridan (shafqatsizlik, zo'ravonlik va boshq.) ogoh bo'lish borasida fakultativ mashg'ulotlarni tashkil etish;

sakkizinchidan, aholi o'rtasida jamiyatda yurish-turish qoidalari va atrofdegilarga nisbatan o'zaro samimiy munosabatda bo'lishni targ'ib qilishda, mashhur blogerlar va ommaviy telekanallar imkoniyatlaridan keng foydalanish;

to'qqizinchidan, yoshlar o'rtasida g'ayriijtimoiy xulq-atvor va tajovuzkorlikning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini tushuntirish, shuningdek, milliy o'zligimizdan kelib chiqqan holda ularda mehr-oqibat, bag'rikenglik, totuvlik, kechirimlilik hislatlarini shakllantirish;

o'ninchidan, jamoat tartibini saqlashga jalb etilgan patrullik yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqib, ularni oila-turmush doirasidagi jinoyatlar sodir

etilish ehtimoli yuqori bo'lgan joylarga yo'naltirish, shuningdek, "Fidokor yoshlar" patrullik guruhlarini jalb qilish;

o'n birinchidan, alkogoldan kuchli mastlik ta'sirida yurgan shaxslarni tibbiy hushyorxonalariga joylashtirish hamda surunkali ichkilikka ruju qo'ygan va giyohvand shaxslarni majburiy davolash choralari ko'rish;

o'n ikkinchidan, tarbiyasi og'ir va deviant xulq-atvorli voyaga yetmaganlarning ro'yxatini shakllantirish, ota-onalari ishtirokida manzilli tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazilishini tashkil etish;

o'n uchinchidan, voyaga yetmaganlar o'rtasida zo'ravonlik, shafqatsizlikni targ'ib etuvchi va pornografik materiallar tarqatilishining oldini olish, bu borada ta'lim muassasalarida "Davomat" va "Tig" maxsus profilaktik chora-tadbirlarni hamda ko'ngilochar joylarda (kompyuterxonalar, tungi klublar va boshq.) reydlar o'tkazish;

o'n to'rtinchidan, oila-turmush doirasidagi jinoyatlardan jabrlanish ehtimoli yuqori shaxslar o'rtasida nizolarni qonuniy hal etish, o'zini mudo-faa qilish usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilishga qaratilgan buklet, flayerlar tarqatish;

o'n beshinchidan, taniqli shaxslar, vayner va blogerlar bilan hamkorlikda oila-turmush doirasidagi jinoyatlarni oldini olishga oid video-kontentlar tayyorlash, ularni mahalliy telekanal va boshqa ijtimoiy tarmoqlarga joylab borish;

o'n oltinchidan, ko'p qavatli uylarni kuzatuv va qayd qilish kameralari, tungi yoritish chiroqlari bilan jihozlash hamda kameralarni ichki ishlar organlariga integratsiyalash.

Shuningdek, oila-turmush doirasida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning profilaktikasini samarali amalga oshirilishida "Mahalla yetiligi"ning ijtimoiy profilaktik faoliyati muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan manbalar

1. Kriminologiya: Darslik / Q.R. Abdurasulova, A.G. Zakirova, I. Ismailov va boshqalar. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 354 — b.
2. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / I. Ismailov, Q.R. Abdurasulova, I. Yu. Fazilov; Mas'ul muharrir Sh. T. Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 272 b.
3. Карпец И.И. Проблема преступности. – М., 1969. – С.109.
4. Аванесов Г.А. Криминология и социальная профилактика. – М., 1980. – С. 459.
5. Umirzakov B. Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning tushunchasi //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. Maxsus son. – 166–170 -b.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Surxondaryo_viloyati#/media/Fayl:Surxondaryo_districts.png.